

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND
FILIALI



“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”

**“Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi” yo'nalishi bo'yicha umumiyl o'rta ta'lim
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

O'qituvchi: Yaxyayeva Sojida Abduraximovna

Mavzu: Pedagog professional kompetentligining ta'limgarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati

Reja:



Pedagog professional kompetentligining ta'limgarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati




Pedagogning tayanch kompetensiyalari

Kompetensiya

Kompetensiya—olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati

Tayanch kompetensiyalar



Kommunikativ kompetensiya

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

O‘zini rivojlantirish kompetensiyasi

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

Umummadaniy kompetensiyasi

Matematik savodxonlik, kompetensiyasi

Kommunikativ kompetensiya

- jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
- turli ziddiyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.



Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

- mavjud axborot manbalaridan (internet, [televizor](#), radio (audio–video yozuv) telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
- media vositalaridan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash ;
- ma’lumotlar [bazasini yarata olish](#), asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish).



Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi

- shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o‘qib o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o‘z xatti-harakatiniadolatli baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish.



Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

- Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- kasbiy mavqeyining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.



Umummadaniy kompetensiyalar

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish.



Matematik savodxonlik kompetensiyasi

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik [faoliyatda turli formula](#), model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish






**O'QITUVCHINING KREATIVLIK
KOMPETENTLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI VA O'QUVCHILARNING
KREATIV FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISH**


Kreativlik inglizcha “**create**”dan olingan bo‘lib, **yaratish** ma’nosini bildiradi

Kreativlik deganda insonning
yangilik yaratish, muammolarni
yechishga qaratilgan ijodiy
qobiliyati tushuniladi






Kreativ fikrlash nima?




O‘quvchilarning tasavvurlarni ta’sirchan tarzda ifodalash, bilim olishga undovchi, **original va samarali yechim topishga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirish kompetensiyasi**




O‘quvchilarning g‘oyalar yaratishi, yangi g‘oyalarga nisbatan munosabatlarini bildirishi va kutilgan natijaga kelmaguncha g‘oyalarni yaratishda davom etishi



TANQIDIY
FIKRLASH




KREATIV
FIKRLASH



KREATIV FIKRLASHDA
muammolar yoki
vaziyatlarga **YANGICHA,**
NOODATIY YECHIMLAR
YARATILADI

KREATIV (IJODIY)
FIKRLAYOTGANINGIZDA,
**SIZ YANGI G'OYALAR
RO'YXATINI TUZASIZ.**



Xo'sh, o'quvchilarni QANDAY QILIB KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH MUMKIN?



Innovatsiya yaratish
uchun
TAFAKKURDA
QANDAY
O'ZGARISHLAR
KECHISHI LOZIM?

MUAMMOLI VAZIYAT VA MASALALARINI taklif etish va uni **HAL QILISHGA UNDASH**



Ijodkorlik borasidagi **O'Z-O'ZIGA ISHONCHNI
ORTTIRISH**

Qiziquvchanligi va tadqiqotchiligini
RAG'BATLANTIRISH

Kreativlikka ta'sir etuvchi **SHAXSIY VA IJTIMOIY
OMILLARНИ IJOBIY TOMONGА YO'NALТИRISH**



Innovatsiya nima?

“Innovatsiya” tushunchasi inglizcha (“innovation”) “yangilik kiritish” ma’nosini anglatadi. Bundan ko‘rinadiki, amaldagi ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilgan faoliyat turiga innovatsiya deyiladi



Shuningdek, **novatsiya** tushunchasi inglizchada “yangilanish” degan ma’noni bildiradi. Shunday ekan, amaldagi ta’lim tizimining muayyan qismi yoki ayrim elementlaridagi o‘zgarishlarga olib keladigan faoliyat turiga **novatsiya** deyiladi




Novatsiyalar innovatsiyalar uchun zamin bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ta’limning sifati, samaradorligi va natijadorligini oshirishga yo’naltirilgan har qanday yangilanish (novatsiya)ning yakuniy holati innovatsiya sifatida qabul qilinadi. Demak, ta’lim tizimiga kiritilayotgan har qanday foydali novatsiyani innovatsiya deb atash xato bo‘lmaydi





Bundan ko‘rinadiki,
novatsiya ham, innovatsiya
ham dinamik xarakterdagι
jarayondan iborat

O‘qituvchining kompetensiya piramidasi



**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**